

## **MAHALLADA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK MASALALARI**

*Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o‘g‘li*

*Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani 40-sonli ayrim fanlarni chuqurlashtirib  
o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori*

**Qisqacha mazmuni:** Mazkur maqolada yurtimizda mahalla institutining yangi rivojlanish bosqichida yoshlar bilan ishlashning ayrim ijtimoiy pedagogik masalalari yuzasidan so‘z boradi.

**Краткое содержание:** В данной статье рассматриваются некоторые социально-педагогические вопросы работы с молодежью на новом этапе развития института махалли в нашей стране.

**Summary:** This article discusses some social pedagogical issues of working with youth at a new stage in the development of the mahalla institution in our country.

**Калит сўзлар:** ёшлар, маҳалла, ёшлар етакчиси, фаол фуқаро, ижтимоий педагогика, маданият, маърифат, усул

**Ключевые слова:** молодежь, махалля, молодежный лидер, активный гражданин, социальная педагогика, культура, просвещение, метод.

**Key words:** youth, neighbord, youth leader, active citizen, social pedagogy, culture, education, method.

Keyingi yillarda yurtimizda yuz berayotgan tarixiy burilish va yangilanishlar jarayonlarida mahallaning ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni va nufuzini oshirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy sohalardagi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

“Milliy o‘zligimiz timsoli bo‘lgan mahallalarimiz go‘zal va betakror vatanimizda tinchlik va ahillik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik makoniga aylangani bilan albatta barchamiz faxrlanamiz. O‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi bo‘lgan bu idoraning nufuzini oshirish, uni chinakam xalq vijdoniga aylantirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida keyingi yillarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”<sup>1</sup>

Xususan, mahallalarda yoshlar bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami va mohiyati jihatdan avvalgilardan tubdan farq qilib, mahalla instituti barcha

<sup>1</sup> Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон маҳалла тизими ходимлари ва фаолларига табрик йўллади.

[www.daryo.uz](http://www.daryo.uz) <https://daryo.uz/k/2023/03/22/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-mahalla-tizimi-xodimlari-va-faollariga-tabrik-yolladi/> 22/03/2023 йил (04.10.2023)

fuqarolar, shu jumladan, yoshlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va hal etish, ularning har jihatdan kamolotiga, munosib turmush tarziga va hayot sharoitlariga ko‘maklashuvchi, ularni birlashtiruvchi va kuch-g‘ayratini, tashabbus va salohiyatini umumjamiyat taraqqiyoti yo‘lida yakdil safarbar etuvchi tayanch ijtimoiy-iqtisodiy bo‘g‘inga aylanmoqda.

“Mahalla nufuzini oshirish nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki siyosiy, ma’rifiy, ulkan ma’naviyat masalasi<sup>2</sup> ekan, unda kechayotgan jarayonlar o‘z navbatida ijtimoiy pedagogikaning dolzarb tadqiqot ob’yektlariga aylanishi tabiiydir.

Ma’lumki, ijtimoiy pedagogikaning maqsadi “inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ilmiy-pedagogik asoslarini ta’minlash, bu o‘zaro aloqani amaliy faoliyat darajasida uyg‘unlashtirish uchun ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ilmiy asosliligi, sifati va samaradorligini oshirish”<sup>3</sup> dan iboratdir.

“Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishda uning pedagogik asoslari alohida o‘rin tutadi. Ular umumiyligi pedagogikaning bir qismi sifatida ijtimoiy pedagogikaning o‘ziga xos tamoyillariga asoslanadi. Bular, masalan, insonparvarlik prinsipi, ijtimoiy ta’sir prinsipi, umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilganlik prinsipi, muloqotni o‘rganish prinsipi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning xilma-xilligiga tayanish prinsipi va boshqalardir”<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-92-son, 19.01.2022 y.) ga binoan, har bir shahar, shaharcha, qishloq, ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilishi esa mahallani tom ma’noda yoshlar hayotida tayanch ijtimoiy institutga aylanish jarayonlarida muhim tarixiy qadam bo‘ldi.

Mahallada yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari sifatida esa bir qator ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olgan va bugungi kunda mahalla yoshlarning haqiqiy huquq-manfaatlarini va ehtiyojlarini ifoda etuvchi ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, bevosita yoshlarning ma’naviy, madaniy va ma’rifiy hayotiga aloqador quyidagi masalalar qamrab olindi:

mahallalarda yoshlarning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash;

<sup>2</sup> Эгамбердиева Н. Ўзбекистон маҳаллалари кечаси ва бугун. Монография, – Тошкент: 2021. – Б.111.

<sup>3</sup> Социальная педагогика: учебное пособие / авт.-сост. С.Г.Григорьева. – Казань: Казан.ун-т, 2018. – стр.17

<sup>4</sup> Дубинский В.И. Автореферат диссертации доктора педагогических наук. М, 2000, стр -5

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishslash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

Shuningdek, yoshlar yetakchilarini tomonidan madaniyat va san’atni targ‘ib qilish, sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish, ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida ellikdan ortiq turkum tadbirlarni bevosita mahallaning o‘zida va yoshlarning faol ishtirokida muntazam o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi<sup>5</sup>.

Bunday sharoitda ijtimoiy pedagogika o‘z tadqiqotlari doirasida quyidagi masalalar yechimini topishi va shu orqali mahalla va yoshlar yetakchilarini faoliyatini yanada takomillashtirishning qulay pedagogik modellari va texnologiyalarini tavsiya etishi zarur bo‘lmoqda:

- jamiyat va avlodlarning mahalladagi ijobiy ijtimoiy tajribasining uzluksizligini ta’minlovchi ijtimoiy faol shaxsga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun jamiyat va mahalla institutining yoshlarni ijobiy ijtimoiylashuviga ko‘maklashuvi imkoniyatlari va yo‘nalishlarini tadqiq etish;

- yoshlar yetakchilarining malakasi va kasbiy darajasiga qo‘yiladigan yuqori me’yoriy talablar va ular uchun markaziy va hududiy darajadagi pedagogik uslubiy xizmatlarni tashkil etish muammolari istiqbollarini o‘rganish;

- yoshlarning psixologik-pedagogik va ijtimoiy-pedagogik xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish va shunga mos yangi pedagogik-psixologik xizmatlar tizimini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- ijtimoiy va kasbiy hayotning eng maqbul shakllarini keng targ‘ib qilish bilan yoshlarning ijtimoiy qimmatli tashabbuslarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha puxta o‘ylangan chora-tadbirlar tizimini ilmiy asoslash shular jumlasidandir.

Bu o‘rinda esa yoshlar yetakchilarini mahalla yoshlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida tayyorlash, malakasini oshirish va metodik qo‘llab-quvvatlash tizimining ilg‘or ijtimoiy pedagogik nazariya va amaliyot uyg‘unligida yo‘lga qo‘yish ayniqsa muhim masalalardan biridir.

Xulosa sifatida aytganda, ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar mahalla va bevosita yoshlar yetakchilarining yoshlar bilan ishslash ko‘lami, shakllari hamda mazmunini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–92. 19.01.2022 y.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон маҳалла тизими ходимлари ва фаолларига табрик йўллади. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz) <https://daryo.uz/k/2023/03/22/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-mahalla-tizimi-xodimlari-va-faollariga-tabrik-yolladi/> 22/03/2023 йил (04.10.2023)
2. Эгамбердиева Н. Ўзбекистон маҳаллалари кеча ва бугун. Монография, – Тошкент: 2021. – Б.111.
3. Социальная педагогика: учебное пособие / авт.-сост. С.Г.Григорьева. – Казань: Казан.ун-т, 2018. – стр.17
4. Дубинский В.И. Теория и практика социально-педагогической работы с учащейся молодежью в условиях современной России. Автореферат диссертации доктора педагогических наук. М, 2000, стр -5
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–92. 19.01.2022 у.